

## ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA ISHQI MAJOZIY VA ISHQI HAQIQIY

**Reymajon Muxutdinova**

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiyasi magistranti

+998 97 858 07 98

[reymajonmuxiddinova@gmail.com](mailto:reymajonmuxiddinova@gmail.com)

*Alisher Navoiy ijod qilar ekan, So'zning e'jozlik maqomini yodda saqlaydi, Oshiq obrazida o'zini tasvir etayotgandek tasavvur uyg'otish bilan birga ilohiy ishq riyozatlarini turli xil metaforalar asosida badiiy talqin qiladi. "G'aroyib us-sig'ar" devonining 50-sahifasida 35-g'azalda lirik qahramon – oshiq obrazining ruhiy holati mubolag'ali tashbihlar asosiga qurilgan, g'azal an'anaviy 7 baytdan iborat, radifsiz – muraddaf g'azal hisoblanadi:*

*Ahvolima Farhod ila Majnun'ga taajjub,  
Ishq etti xirad ahli qoshida meni rasvo.  
Har sori tamoshog'akim, ul sho'x qilur azm,  
Yo'q anga tamoshoki, erur elga tamosho. [50-sahifa]*

Alisher Navoiy ishqiy mavzudagi misralarida Ishq bilan bog'liq obrazlar, timsollar bilan birga bir qancha detallardan ham foydalanadi. Yuqorida keltirilgan baytlarda ishlatilgan har bir so'z lirik qahramon holatini qiyoslash, mubolag'ali tasvir qilishga xizmat qildirilgan, ruju' san'ati ham shoirning so'z qo'llash mahoratini ko'rsatib turibdi.

Yaqin va O'rta Sharq mumtoz she'riyatida ko'z timsolidan ham ko'p foydalanishgan, bunda bir qancha tashbihlar maydonga kelgan, masalan, go'zal nigorning ko'zlari ohuning, kiyikning ko'zlari bilan o'xshatish qilinadi. adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqovning Alisher Navoiy g'azallari badiiyati tog'risidagi: "Navoiy g'azaliyotiga xos yaxlitlik, mantiqiy izchillikni ta'minlagan omillardan biri har bir g'azalga konkret bir fikr, detal yoxud obrazning (keng ma'noda) asos qilib olinishi va tasviriy imkoniyatlarning barchasi tasvir oby'ektining to'liq va izchil ifodasi uchun safarbar etilishidan iboratdir..."<sup>1</sup> degan fikri o'rinlidir. Alisher Navoiy g'azallarida bir necha mahbuba ismi qo'llanishi, ma'shuqaning har gal har xil tavsiflanishi ayni paytda talqin ishq ilohiy bo'lganiga ham dalolat qiladi. Zero, bu tasavvuf she'riyatida ramz bo'lib, ular orqali ilohiy mushohada va botiniy holatlar, g'ayb olamiga oid hodisalar tavsiflanadi.

<sup>1</sup> Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. - 104 б.

Adabiyotshunos U.Qobilov ta'kidlaganidek, "Alisher Navoiy she'riyatida obrazlar muvoziy tasvirlanganda ular tarixi va tavsifi bilan bog'liq rangin talqinlar lirik tuyg'ularga tamsil etiladi. Bunda obrazdan ko'ra ularga daxldor lavha va detallar talqiniga e'tibor qaratiladi. Ular goh oshiq, goh ma'shuq obrazlari tabiatida aks etadi. Bunda muvoziy obrazlar ham, timsol va she'r ruhiyatida ham mantiqiy bog'liqlik, badiiy-estetik muvozanat ta'minlanadi"<sup>2</sup>.

Alisher Navoiyning quyida **Fido**<sup>3</sup> radifli 9 baytdan iborat ishqiy mavzudagi g'azalini ko'rib chiqamiz:

**Lug'at**

**Mug'** - lug'aviy ma'nosi otashparast, kohin kabilarni ifodalaydi. Istilohiy ma'noda esa mumtoz she'riyatda ko'p ishlatiladigan ramziy obrazlardan biri.

**Boda** (forscha: باده) — o'zbek tiliga fors tilidan olingan bo'lib, lug'atda «**may**», «**sharob**» yoki «**musallas**» kabi ma'nolarni anglatadi. Sharq she'riyatida «may» tushunchasining sinonimi sifatida (may, boda, mudom, sharob) keng qo'llaniladi. Istilohiy ma'nosi: tasavvuf adabiyotida (masalan, Alisher Navoiy asarlarida) har bir so'zning botiniy (yashirin) ma'nosi bor. Boda bu yerda oddiy ichimlikni emas, balki ma'naviy holatni anglatadi: Ilohiy ishq ramzi; iymon; ma'rifat orqali qalbg'a yetadigan fayz, zavq.

**Mir'ot** – ko'zgu.

**Ishq** so'zining lirik adabiyotda yoki tasavvuf ta'limoti va tasavvufiy badiiy adabiyotda paydo bo'lishi alohida bir tarixga ega. Istilohiy ma'noda, dastlab, IX asrda yashagan mashhur shayx Abu Husayn Nuriy tomonidan qo'llanganligi manbalarda qayd etiladi. Arab she'riyatida esa ilohiy ishq haqida qarashlari bilan nom chiqargan shoira Robiya Adaviyadir. Ishq haqida Alisher Navoiy ham lirikadan tashqari "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr" kabi asarlarida maxsus to'xtalib o'tadi. Oshiqona, irfoniy, rindona she'rlarida, odatda, ishq majoziy va ishq haqiqiy turlari talqin qilinadi.

G'azal matla'sida ma'nolari o'zaro yaqin bo'lgan tushunchalar ramad tekkan ko'z bilan bemor jism, uchuq chiqqan lab bilan afgor bo'lgan jon kabilar tanosub san'atini yuzaga chiqarish bilan bilan aynan shu tushunchalar doirasida zidlantirilgan. Bu tasvirda labdagi uchuq oddiy kasallik emas, balki yor go'zalligini oshiruvchi detal, bir paytning o'zida oshiqning iztirobini ham ifodalaydi. Ramad tekkan ko'z obrazi – shamollagan ko'z, odatda qizarib ketadi, she'riyatda esa bedorlik ma'nosini tashiydi.

*Ham ramad tekkan ko'zangga jismi bemorim fido,  
Ham uchuq chiqqan labingga joni afgorim fido.*

<sup>2</sup> Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV-XV асрлар). Фил. фан. док. дисс. (DSc) автореферати. – Самарқанд: 2019. – 34 б.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Vafo qilsang: G'azallar / To'plab nashrga tayyorlovchi Aziz Qayumov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2004. 7-sahifa.

Ikkinchi baytda matla'dagi ifodani yanayam kuchaytirib ifodalash bilan birga oshiq holatining sabablari chiroyli tasviri berilgan. Ya'ni, mubolag'a san'ati vositasida oshiqning ichki kechinmalarini jozibali bir tarzda ifoda etgan. Bu baytda ham tanosub san'atidan foydalanilgan bo'lib, ashk, giryon, ko'z, chashm kabi uyadosh so'zlardan poetik ifoda uchun foydalanilgan. O'quvchida yor va oshiq bir-birini so'zsiz his qiladigandek yoki ikkisi bir kishidek tasavvur uyg'otadi.

*Ashkkim, andin tomar giryon ko'z oning sadqasi,  
Qong'akim mundin chiqar, bu chashmi xunborim fido.*

Keyingi baytda ham mubolag'a, tanosub bilan birga istiora san'atidan ham foydalanish jarayonida oshiq holatining yuksalishini tabiat manzarasi fonida ifoda etadi. E'tibor berib qarajak, Alisher Navoiy bu g'azalda baytma bayt lirik qahramonning holatini farqlash va jamlash orqali mubolag'ali bir tarzda tasvir qilgan. To'rtinchi baytni g'azalning asosiy yuksalish nuqtasi ham deyish mumkin, holbuki, shoir bu baytda falsafiy qarashlarini ochiq yuzaga chiqaradi. Bor va yo'q tushunchalaridan baytning har ikki misrasida mohirlik bilan foydalanib, badiiy san'atlardan tardi aks orqali ham badiiy, ham falsafiy qarashlarni ilgari suradi.

*Ko'zu og'zingdin ketarga boru yo'q oshubu ranj,  
Sabru ishqdin sadqa, ya'nikim yo'qu borim fido.*

Ko'z bilan og'iz tanosub san'atini hosil qilgan bo'lsa, boru yo'q tazodni yuzaga chiqargan, buni endi sal boshqacha ko'rib chiqamiz: ko'z – bor, og'iz – yo'q, ya'ni ko'z mavjudlik, voqelik deb qaralsa, og'iz kichiklik yoki yo'qlikni aks ettiradi, hamma dardlar ketsin ma'nosi ifoda etilgan. Oshub – g'alayon, g'avg'o, ranj – azob – oshiq bu dardlarni o'z sabri ishq evaziga o'ziga olmoqchi, ya'ni yo'qu borini fido qilmoqchi. Baytlarda ishlatilayotgan badiiy tasvirlar, obraz va timsollar hammasi ilgari surilgan maqsadga – Fido bo'lishga xizmat qildirilgan.

G'azal baytlariga e'tibor bersak, ishq uchun lirik qahramon jismini, jonini, ko'zini, bog'u gulzorini, yo'qu borini fido qilgan edi. Endi beshinchi baytda oshiqning Ko'ngli Yorning itlariga fido bo'lmoqchi, negaki ohu ko'z oldida u loyiq ko'rilmay qolish xavfi bor. Oltinchi baytda esa Jon shirin lab uchun loyiq ko'rilmayapti, oshiqning xohishi esa jonini Yor so'zlari uchun fido qilishdir. Baytda yor *sho'xi sitamkor* deb sifatlanadi va ohu ko'z bilan tazod san'atini hosil qiladi, keyingi baytda esa *talxguftor* deb sifatlanib shirin lab bilan tazod qilingan. Demak, haqiqiy ishqning mohiyati oshiq yorning lutfi, marhamati bilan birga, uning jabriga ham, achchiq so'zlariga ham fido bo'lmoqchi.

Yettinchi baytda Alisher Navoiy tasavvufiy gʻoyalarni tasavvufiy terminlar, ramzlar orqali beradi:

*Oʻzlugumning qaydidin bir may bila qilding xalos,  
Vah, ne dey, ey mugʻ, sanga but birla zunnorim fido.*

Navoiy gʻazallarida piri mugʻan, mugʻbacha kabi obrazlar ham mavjud boʻlib, rindona gʻazallarda badiiy va falsafiy ifoda vositasi boʻlib keladi. Mugʻ obrazi shaxs erkinligi, samimiylig va ilohiy ishq kabi tushunchalarni badiiy tasvirlashda qoʻllaniladi. Alisher Navoiy gʻazalda ishlatilgan ramziy ifodalar orqali koʻngil porterini, ishq haqidagi qarashlarini tasavvufiy sheʼriyatga xos boʻlgan obrazlar vositasida ifoda qiladi. Baytda mugʻ - pir, maʼnaviy ustoz, komillik timsoli, degan maʼnoda kelyapti, oʻzluk – nafs, oʻzluk qaydi – nafsning dunyoviy bogʻliqliklari yoki zanjirlaridan xalos qiluvchi may ramziy maʼno kasb etgan. May – maʼrifat, ishq maʼnolarini berib, ilohiy ishq sharobi maʼnosida ishlatilgan. Oshiqni dunyoviy gʻavgʻolardan qutqaruvchi mayni faqat mugʻ, yaʼni maʼnaviy pirgina berishi mumkin. bu baytda but, zunnor kabi tushunchalar ham ishlatilgan boʻlib, ular ramziy – oshiqning koʻnglidagi yordan boshqa suyukli narsalar, ularga bogʻlab turadigan iplargacha hammasidan voz kechmoq maʼnosida kelgan. Yaʼni, oshiq haqiqiy hurlikka erishmoqchi, nafs qutqularidan qutulish – asosiy maqsadga aylangan.

*Boda mirʼotida shohid aksi zohir boʻlmadi,  
Bodavu shohidgʻa boʻlmay naqdi pindorim fido.*

Bu bayt ham falsafiy-tasavvufiy gʻoya bilan sugʻorilgan, buni boda, pindor kabi tushunchalar orqali ham koʻrishimiz mumkin. Pindor – oʻy, fikr, shubha, kibr, manmanlik kabi maʼnolarni ifodalab, mumtoz sheʼriyatdan asldan, haqiqatdan uzoqlashtiruvchi, ilohiy haqiqatdan chalgʻituvchi, nafsning botil maqsadlari bilan aloqador boʻlgan havolangan havaslarini ifodalaydi. Boda esa istilohiy maʼnoda iymon maʼnosida ishlatiladi, bu baytda boda mirʼoti birikmasi shaklida kelib, qalb koʻzgusi degan maʼnoda ishlatilgan, demak, ilohiy ishq – maʼrifat orqali oshiq qalbi iymon nuri bilan yoritildi va u hamma narsani koʻruvchi – koʻrsatuvchi boʻldi, qachonki u moumanlikdan (pindordan) qutulsa qalb koʻzgusida Haqiqat (shohid aksi) namoyon boʻladi. Gʻazal maqtaʼsida Yor maydonga javlon urib chiqdi, va nihoyat jonni ham, koʻngilni ham dildoriga fido qildi:

*Ey Navoiy, demakim, jonu koʻngulni naylading,  
Ayladim javlon qilib chiqqanda dildorim fido.*

Demak, g‘azal o‘zining mantiqiy xulosa qismiga yetib keldi.

Shoir Fido tushunchaning pastdan yuqoriga qarab rivojlanishini mukammal badiiy tarzda beradi: dastlab jismoniy a‘zolar – bemoq jism, giryon ko‘z, moddiy borliq – bog‘u gulzor; ma‘naviy holatlar – sabr, ishq, pindor; butunlik yoki butun borliq – jon va ko‘ngil. Demak, Alisher Navoiyning ushbu g‘azali ishq va fidoyilikning yuksak falsafiy hamda badiiy ifodasidir.

Mumtoz she‘riyatda ishq mavzusi va ko‘ngil timsollari, asosan, g‘azallarda an‘anaviy tarzda qo‘llanilib kelingan bo‘lsa, Alisher Navoiy she‘riyatida bu obraz-timsollar mustazod, muxammas, musaddas, tarji‘band, ruboiy, lug‘z, fard kabi janrlarda qo‘llaniladi. Mazkur timsollarni shoir har bir janrda muayyan maqsad va vazifada, turli holat va kechinmalarga talmih-tamsil etiladi. Shoir oshiq va ma‘shuqa o‘rtasidagi ishqiy munosabatlarga, ularning ruhiy holatiga diqqat qaratadi. Oshiqona g‘azallarda turli xil obrazlar vositasida shoir lirik qahramon ichki kechinmalarining eng hayajonli, oshiq ko‘ngilning eng dardli holatlarini yoritib beradi. Layli husni orqali yorning go‘zallikda tengsizligi, uning noz-ishvasi, ma‘naviy qiyofasiga yuqori baho beriladi. Yor va oshiq, Oshiq va g‘ayr, Ko‘ngil va zangi g‘am (qayg‘u) kabi timsollar bilan birga yor (mahbuba) obrazining suvrati va siyratiga baho berarkan, mazkur timsollar bilan ishq ilohiyini sharaflaydi, Yaratganning g‘ozallik sifatini ulug‘laydi.

Alisher Navoiy devonlaridagi yuzlab she‘rlarda fano va faqr degan so‘zga ko‘p duch kelamiz. Aslida Navoiy qalbida dard bo‘lgan narsa – avomlik, nodonlik, gumrohlikdir. Shoir avom ranjidan xalos aylash uchun Olohga iltijo qilib biri ikkinchisiga yo‘l ochib beruvchi uchta orzuni izhor qilgan. Birinchisi, fano holida eng baland darajaga ko‘tarilib, ruhiy shodlik va farog‘atga erishish.

Mutasavvif shoirlar fano so‘zini necha o‘nlab ma‘nolarda qo‘llagan, biri ikkinchisiga o‘xshamaydigan, gohida keskin farqlanadigan mazmunlarni ilgari surishgan. Abu Nasr Sarrojga ko‘ra, fano va baqo mohiyatan o‘zaro bog‘liq istilohlardir. U yozadi: “Fano va baqo avom darajasidan xavoss (xos kishilar, ma‘rifat sohiblari) martabasiga ko‘tarilishni ko‘zlagan ahli tavhidning sifatiga daxldor ikki nomdir. Boshlang‘ichda fano va baqo istilohlari shunday tushunilardi: limning o‘rtaga chiqishi – baqo, jaholatning barham topishi – fano. Qulning o‘rgangan ilmi va ma‘rifat asosida inoyati ilohiyga Musharraf bo‘lish tuyg‘usining voqelanishi – baqo, o‘zining harakatlarini ko‘rishdan foniy bo‘lish – fano”. Demak, Navoiy ko‘zda tutgan “fano bazmi” – bu ham xulqiy poklanish, axloqni go‘zallashtirish tajribasi, ham ilm va ma‘rifat cho‘qqisini egallash saodati, ham tavhid holi sohibi bo‘lishdir. Faqr so‘zida yo‘qsillik ma‘nosi bo‘lgani bilan hech bir mumtoz shoirimiz uni qashshoqlik, aftodalik targ‘ibi uchun ishlatmagan. Faqr – darveshning hech bir narsaga bog‘lanib, taqalib qolmaslik shuuriga ko‘tarilishi, Olohdan boshqaa hech kim, hech nimaga muhtojlik sezmasligi, deganidir.

Navoiy ijodida hayotga muhabbat insonning millatidan, irqidan va diniy mansubligidan qat'iy nazar, uning qadr-qimmatini ulug'lash, xalqlar o'rtasida do'stlik, birodarlik, tinchlik va hamjihatlik kabi insonparvarlik ruhidagi g'oyalar bilan sug'orilgan. Ayniqsa, hozirgi kunimizda turli mintaqalarda ro'y berib turgan millatlararo janjalu mojarolarni oldindan ko'ra bilgan buuk Navoiyning ushbu dohiyona o'g'itlari insoniyat tarixining barcha davrlari uchun hamohangdir. Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiy g'azallari tarkibidagi baytlarda inson ma'naviyatini shaklantirishga xizmat qiladigan turli-tuman mavzulardagi pand-nasihatlar ham mavjud bo'lib, ular g'azallar mavzu doirasining naqadar keng ekanligini ham yana bir karra namoyish etadi.

Alisher Navoiy lirikasida ishq tushunchasi bir tomonlama emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki bosqich - *ishqi majoziy* va *ishqi haqiqiy* ko'rinishida namoyon bo'ladi. Navoiy talqinida insoniy sevgi (ishqi majoziy) Mutlaq Haqiqatga olib boruvchi zaruriy ko'prik vazifasini o'taydi. Shoir g'azallaridagi ma'shuqa obrazi (uning sochi, ko'zi, xoli) dunyoviy go'zallikni ifodalash bilan birga, Ilohiy borliq sirlarining ramziy timsoli sifatida keladi. Ishqi haqiqiy - oshiq qalbining nafs va moddiylik kishanlaridan qutulib, ilohiy fano darajasiga yetishi va Haq visoliga erishishidir. Navoiy g'azaliyotida lirik qahramonning iztiroblari, firoq va hijron kuylanishi mohiyatan ruhning o'z asliga qaytishga bo'lgan intilishini ifodalaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 3-tom (20 jildlik). – Toshkent: “Fan” nashriyoti. 1988.
2. Haqqul. Navoiyga qaytish. – Toshkent: “Fan” nashriyoti. 2007.
3. A.Hojiahmedov. She'riyat san'atlari va mumtoz qofiya. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti. 1999.
4. D.Yusupova. Aruz qoidalarini va mumtoz poetika. – Toshkent: “Ta'lim Media” nashriyoti. 2019.